O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Сурхондарё вилояти 7170312 3449347

190100, Termiz shahri , Taraqqiyot ko'chasi, 42-uy, Termiz shahri, AT "Турон" bank Tel-Fax:
(376)-22-3-24-87, 22-3-06-42, 22-3-24-75 Mail: surxonekspertiza@mail.ru www.mc.uz

12.11.
Holati: Tasdiqlandi 19.11.2021
Direktor: ERGASHEV BAHODIR OCHILDIYEVICH
Sana:12-11-2021 yil

## Yig'ma ekspert xulosasi № 24108

**Obyekt nomi** ««Surxondaryo viloyati Muzrabod tumani sud binosida fuqorolarni qabul qilish xonasini barpo etish» ishchi loyixasi bo'yicha»

**Buyurtmachi –** Surxondaryo viloyati xokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati"IK
**Bosh loyihachi** - «Janub Surxon universal» MCHJ
**Litsenziya** AL-000107 sonli, 2019 yil 19 iyulda O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi tomonidan berilgan
**Moliyalashtirish manbai** - Byudjetdan tashqari Sudlar faoliyatini ta'minlash Departamentining Surxondaryo viloyati xududiy bo`limi qurilish va asosiy fohdlar jamg`armasi
**Bosh pudratchi –** Erkin savdo natijalariga ko'ra aniqlanadi
**Qurilish turi** Barpo etish va mukammal ta'mirlash
**Murojaat raqami:** № 22882

### 1. Loyihalash uchun asos

1. Sudlar faoliyatini ta'minlash Departamentining Surxondaryo viloyati xududiy bo`limi boshlig`i bilan kelishilgan va buyurtmachi tomonidan 2021yilda tasdiqlangan loyixa topshirig'i.

2. 2021 yil 31-agustdagi Surxondaryo viloyati xokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK tomonidan tasdiqlangan 13-sonli narxlar kelishuvi bayonnomasi.

### 2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

ShNQ 1.03.01-16 talablariga asosan ishlangan ishchi loyixa

- 1 kitob – umumiy tushintirish yozuvi;
- 2 kitob – smeta xujjatlari;
- 3 kitob – qurilish ishlarini tashkil qilish kitobi;
- 4 kitob – 1 albom ishchi chizmalar.

### 3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Mazkur loyihada Surxondaryo viloyati Muzrabod tumani jinoyat ishlari bo`yicha sud ma'muriy binosini ta'mirlash va fuqorolarni qabul qilish xonasi qurilishi ko'zda tutilgan.

#### *3.1. Manzili*

Qurilish Surxondaryo viloyati Muzrabod tumani jinoyat sudi mavjud xududida amalga oshiriladi.

Mazkur loyihada Surxondaryo viloyati Muzrabod tumani jinoyat ishlari bo`yicha sud ma'muriy binosini ta'mirlash va fuqorolarni qabul qilish xonasi qurilishi  ko'zda tutilgan.

### *3.1. Manzili*

Qurilish Surxondaryo viloyati Muzrabod  tumani jinoyat sudi mavjud xududida  amalga oshiriladi.

### *3.2. Hudud bosh rejasi*

Bosh reja ShNK 2.07.01-03* texnologik talablariga muvofiq, yong'in va sanitariya me'yorlariga mos holda ishlab chiqilgan.

Qurilish loyihasida quyidagilar ko'zda tutilgan: mavjud ma'muriy binoni ta'mirlash va qabulxona qurish.

### *3.3. Texnologik yechimlari*

Qabul qilish xonasi qurilishi tashrifchilar uchun qulaylik yaratish  maqsadida bajarilmoqda va  u kutish zali hamda qabulxonadan iborat.

Imkoniyati cheklanganlar  uchun "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-11-moddalariga va 2001yil 30-apreldagi 25-son O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitekturasining buyrug'iga muvofiq binoga kiraverishda panjarali pandus  ko'zga tutilgan.

### *3.4. Asosiy konstruktitiv yechimlar va parametrlar*

*Loyihalanayotgan fuqorolarni qabul qilish xonasi* - bir qavatli, to'g'ri turtburchakli  yengil metall konstruksiyadan bo'lib, ustunlar o'qlari bo'yicha o'lchamlari 12x6m, xona balandligi - 3.0m,   pol yuzasidan tom tepasigacha balandligi 3.8m, poydevori tasmasimon quyma betondan, alyumini vitraj romlari bilan o'ralgan, tom yopmasi metal konstruksiyali bo'lib, polimer qoplamali profnastildan bilan qoplanadi, tom issiqlik qatlami mineral momiqdan, shifti gipsokartondan.

Cho'kuvchanlikka qarshi tadbirlar 2.02.01-96 QMQ talablariga asosan inobatga olingan.

Beton va temir beton konstruksiyalari tuproqqa ko'miluvchi qismlarining yemirilishga qarshi himoyasi uchun poydevor tagiga bitum bilan to'yintirilgan shag'al katlamli asos berilishi va tik yuzasi 2 qatlamli surtma gidroizolyatsiya qilinishi inobatga olingan.

Ob'ektdan favqulotda holat sharoitida foydalanish kafilligi (mazkur holatda seysmik ta'sirchanlik) bino va inshootlarning "Seysmik hududlarda qurilish" nomli 2.01.03-96sonli QMQ talablari asosida qo'shimcha kuchaytirilishlari bilan ta'minlanadi.

Yong'inga qarshi tadbirlar  2.01.02-04 sonli ShNQ talablariga  asosan inobatga olingan.

1.03.01-16 sonli ShNQ talablariga asosan binolarning issiqlik tejamkorligini oshirish maqsadida, elektrtejamkor chiroqlar o'rnatilishi,  ikki qavat shisha oynali eshik va dereza romlari o'rnatilashi, tom yopmasida mineral plitadan isiklik izolyatsiyasi  ko'zda tutilgan.

### *3.5. Qurilish davomiylik muddati*

QTL taqvimiy jadvaliga ko'ra qurilish davomiylik muddati 1 oyni tashkil qiladi.

## 4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Issiqlik ta'minoti - split tizim orqali.

Elektr toki  ta'minotlari -mavjud takmoqqa ulangan.

## 5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyixa topshirig'i Sudlar faoliyatini ta'minlash Departamentining Surxondaryo viloyati xududiy bo`limi boshlig`i bilan kelishilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan

## 6. Ekspertiza natijalari.

*5.1. Ekspertizadan o'tkazish jarayonida lokal ekspert xulosalar bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va takliflar asosida loyixachi tomonidan ishchi loyixaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi:*

- umumiy tushuntirish yozuvi loyixaviy yechimlarga karab tugirlandi,
- binonning aralash konstruksiyasi yengil metall konstruksiyaga almashtirildi,
- tomning  mineral momiqli isskiqlik qatlami "rabisa" turidagi to'rga to'shalish yechimi qabul qilindi,
- tom metall feramasi o'lchamlari qayta ko'rildi,
- pandus yuzasi  nishabligi to'g'irlandi va to'siqlari  tutqichi  dumaloq quvurdan olindi,

5.2. Resurslar ro'yxatidagi ishlarning turlari va hajmi, resurslari ro'yxatini aniqlashning xaqiqiyligini baxolash:

- resurs ko'rsatkichlarining narxi (mashinalar va mexanizmlarning ishlashi transport harajatlari, materiallar) buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan narx kelishuvi bayonnomasi muvofiq to'g'rilandi.

***5.3.Qurilish ishlari qiymati hisobi.***

Taqdim etilgan loyihaning qurilish ishlari qiymati QQS (qo'shimcha qiymat solig'i) bilan ***520 821, 022 ming so'm***ni tashkil qilgan bo'lib, ekspertiza natijasiga ko'ra, taqdim etilgan qiymati- ***55 453,106 ming so'm*** miqdorida kamaytirilib, ***465 367, 916 ming so'm*** tasdiqlash uchun tavsiya etildi, jumladan:

- QMI...................................................................................-385 397, 860 ming so'm,
- QQS....................................................................................-57 809, 679 ming so'm.
- buyurtmachining boshqa xarajatlari.............................-22 160, 377 ming sum.

Kamayishga ayrim ish turlari hajmlariga va qurilish materiallar narxlariga va element resurs normalarga aniqlik kiritilganligi natijasida erishildi.

5.4. Buyurtmachining boshqa xarajatlari miqdorini 4.01.16-19 sonli ShNQ talablariga asosan aniqlash buyurtmachi va bosh loyixachi zimmasiga yuklatiladi.

5.5. Loyiha topshirig`i qurilish bosh boshqarmasi bilan kelishilsin.

5.6. Qayd etilishicha, loyixalash xujjatlari ekspertizaga texnologik va boshqa yechimlar bo'yicha buyurtmachining izoxlarisiz taqdim etilgan.

5.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qaroriga 1-ilova, III bob 29-band va SHNK 1.03.06-13da "Davlat ekspertizasiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlari sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki loyihalash ma'lumotlarining ishonchliligi nuqtai nazaridan) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

5.8. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

## 7. Xulosalar.

*6.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan «Surxondaryo viloyati Muzrabod tumani sud binosida fuqorolarni qabul qilish xonasini barpo etish» ishchi loyixasi bo'yicha ishchi loyixasi bo'yicha qiymatini kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya qilinadi.*

*6.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.03 yildagi 261-sonli qaroriga va ShNK04.01.16-09 asosan tavsiya qilinayotgan qiymati pudrat shartnomasi tuzish uchun asos bo'la olmaydi va erkin tanlov savdosining boshlang'ich qiymatini yakuniy aniqlash huquqi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.*

***Ekspert B.Soatmurodov***

**Bosh mutaxassis:** Katayev Abdukarim Xidirovich

my.gov.uz
Единый портал интерактивных государственных услуг

## Qurilish-montaj ishlari boshlanganligi haqida xabar berish

| | |
|---|---|
| **Ariza raqami** | 40679384 |
| **Tashkilot** | O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi |
| **Berilgan sana** | 26.11.2021 10:27 |
| **Ohirgi o'zgartirish kiritilgan sana** | 26.11.2021 10:27 |
| **Holati** | Yangi |
| **Hozirgi amal** | Принятие на рассмотрение |
| **Tekshirish uchun parol** | 86830 |

## Ariza beruvchi haqida ma'lumot (Jismoniy shaxs)

| | |
|---|---|
| F.I.O. | ARAMOV ASLIDIN XXX |
| Pasport seriyasi va raqami | AC0078505 |
| Ro'yxatdan o'tgan manzil (pasport bo'yicha) | Surxondaryo viloyati Termiz tumani |
| Jismoniy shaxsning telefon raqami | 998975348410 |
| Jismoniy shaxsning elektron pochtasi | safar84@umail.uz |

## Obyekt to'g'risidagi ma'lumotlar

| | |
|---|---|
| Obyektning nomi | Muzrabot tumani sud binosida fuqarolarni qabul qilish xonasini barpo etish |
| Obyektning joylashuvi (indeks, manzil, belgi) | Muzrabot tumani |
| Hudud | Surxandaryo viloyati |
| Tuman (shahar) | Muzrabot tumani |
| Obyekt murakkabligi kategoriyasi | 2 |
| Qurilish ishlari turi | Rekonstruksiya |
| Qurilish-montaj ishlarining qiymati: yig'ma ekspertiza xulosasiga asosan (QQSiz, buyurtmachining boshqa harajatlari va jihozlarsiz) | 441347354 |
| Loyiha-smeta hujjatlarini parallel olib boriladigan qurilish ob'ekti bo'yicha (hukumat qarori, bayoni № raqami va sanasi) | yo'q |

| | |
|---|---|
| Davlat dasturi obyektlari uchun (hukumat qarori, bayoni № raqami va sanasi) | O'z.Res Oliy sudi Surxondaryo viloyat boshqarmasining 16.07.2021-yildagi №OSD-75-302-sonli xati |
| Davlat ekspertiza organining nomi | "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK Surxondaryo filiali |
| Davlat ekspertiza organining ijobiy xulosasi raqami va sanasi | №24108 12.11.2021 |
| Pudratchi tashkilotning litsenziyasining raqami va sanasi - ayrim litsenziyalanadigan qurilish-montaj ishlarini bajarishda | "Termiz Universal Plast" MCHJ |
| Ekspertiza organlarining sanoat xavfsizligi bo'yicha ijobiy xulosasi raqami va sanasi - xavfli ishlab chiqarish obyektlari uchun | Ushbu obyekt xavfli ishlab chiqarish turiga kirmaydi |

**Nazorat qiluvchi organlar va mas'ul shaxslar haqida ma'lumot**

**Nazorat qiluvchi organlar va mas'ul shaxslar haqida ma'lumot**

| # | Qurilish obyektida mas'ul shaxsning lavozimi: | Tashkilotning nomi | Mas'ul shaxsning F.I.O. | Pasport seriyasi va raqami |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Texnik nazorat | "Yagona buyurtmachi xizmati" IK | Karimov Parda Xoliqovich | AC 0605146 |
| 2 | Muallifning nazorati | "Janub Surxon Universal" MCHJ | To'rayev Qilichbek Qaxramon o'g'li | AA5715155 |
| 3 | Pudratchi tashkilot | "Termiz Universal Plast" MCHJ | Abdunazarov Ilxom | AC000000 |